

HIND-O'ZBEK MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI BAHOLASHNI QIYOSIY O'RGANISH (HAYDAROBOD 5-SINF DARSЛИGI ASOSIDA)

Axmedova Malika

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU

3-kurs talabasi

axmedovamalika1012@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Haydarobod shahrida chop etilgan “My English World” nomli 5-sinf ingliz tili darsligidagi self-assessment (o‘z-o‘zini baholash) bo‘limi asosida O‘zbekiston 5-sinf ona tili darsligi uchun muqobil baholash modelini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. O‘z-o‘zini baholashning nazariy asoslari, pedagogik samaradorligi, kompetensiyaviy ta’limdagi o‘rni va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari Shohrukh Abduraimovning ilmiy yondashuvlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini baholash, ona tili ta’limi, Haydarobod darsligi, qiyosiy tahlil, formativ baholash

Abstract: This article is devoted to the development of an alternative assessment model for the Uzbek 5th grade native language textbook based on the self-assessment section in the 5th grade English textbook “My English World” published in Hyderabad. The theoretical foundations of self-assessment, pedagogical effectiveness, its role in competency-based education, and practical application possibilities are analyzed based on the scientific approaches of Shohrukh Abduraimov.

Keywords: self-assessment, mother tongue, Hyderabad textbook, comparative analysis, formative assessment.

Ta’lim jarayonida baholash doimiy nazorat vositasi bo‘libgina qolmay, balki o‘quvchini anglash, fikrlash va o‘zini baholashga undovchi pedagogik mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, o‘z-o‘zini baholash(self-assessment) -o‘quvchining o‘zini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shaxsiy rivojlanish strategiyasini tuzish imkonini beradi. Bu yondashuv kompetensiyaviy ta’limning ajralmas qismi sanaladi.

Hindistonda nashr etilgan “My English World” (5-sinf) darsligida self-assessment, ya’ni o‘z-o‘zini baholash doimiy amaliyot sifatida kiritilgan bo‘lsa, O‘zbekiston maktab darsliklarida bu amaliyot hali to‘liq joriy etilmagan. Ushbu maqolada ikki tizim o‘rtasidagi baholash yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, o‘zbek darsliklari uchun muqobil o‘z-o‘zini baholash modeli ishlab chiqildi.

O‘z-o‘zini baholashning ilmiy-nazariy asoslari

Shohrux Abdurayimov o‘zining “*Baholash nazariyasi asoslari*” nomli monografiyasida quyidagicha yozadi: “O‘z-o‘zini baholash bu o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi reflektiv tahlildir. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat natijani, balki o‘z harakatlarining sabab va oqibatini ham anglaydi”.[Shoxrux Abduraimov “Baholash nazariyasi asoslari” 34-36 b.]

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchida quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;
- o‘quvchida javobgarlik hissini kuchaytiradi;
- mustaqil qaror qabul qilishga undaydi;
- metakognitiv kompetensiyalarni rivojlanadir.

UNESCO tomonidan ham o‘z-o‘zini baholash metodikasi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida asosiy baholash vositalaridan biri sifatida e’tirof etilgan.[UNESCO “Assessment for Learning in South Asia” p.22-27]

Haydarobod “My English World” darsligidagi self-assessment bo‘limi

Darslikdagi har bir bob (unit) yakunida “How well did I understand this unit?” degan bo‘lim mavjud[SCERT Telangana “My English World” 20-b.] Unda o‘quvchi 4–5 faoliyat turini o‘ziga mos ravishda baholaydi. Bu holat darslikda quyidagicha aks etadi:

|  | Indicators | Yes | Somewhat | No |
|---|---|------------|-----------------|-----------|
| 1. | I listened to and understood the listening text. | | | |
| 2. | I read and understood the text; a) Let’s be Friends | | | |
| 3. | I talked about Hari and my friends. | | | |
| 4. | I completed the crossword puzzle. | | | |
| 5. | I understood and did the exercises on; a) articles b) adverbs | | | |
| 6. | I understood and recited the poem, ‘The Best Friends’. | | | |
| 7. | I was able to write; a) a notice. b) a conversation c) a description | | | |

1-jadval

Bu model samarali ishlaydi, chunki u:

- o‘quvchiga fikr yuritish imkonini beradi;
- individual yondashuvni rag‘batlantiradi;
- muammoli nuqtalarni o‘qituvchiga ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, o‘z-o‘zini baholash darslikdagi barcha mashqlar bilan integratsiyalashgan: so‘z boyligi, grammatika, og‘zaki ifoda, tinglab tushunish – barchasi baholanishi mumkin.

O‘zbekiston 5-sinf ona tili darsligida o‘z-o‘zini baholashning holati

Hozirgi amaliyotda O‘zbekiston maktablarida o‘z-o‘zini baholash rasmiy darsliklarda aks etmaydi. Baholash odatda quyidagi shaklda bo‘ladi: 1) Diktant, bayon, insho, esse; 2) loyiha ishi; 3) test. Bunda o‘quvchining o‘z fikrini baholashi, o‘zini kuzatib, natijalari ustida ishlashi ko‘zda tutilmagan.

O‘z-o‘zini baholash metodikasi o‘quvchining tanqidiy fikrlashi va o‘z ustida ishlashga undovchi vositadir. Islomova bu borada quyidagicha fikr bildiradi: “Reflektiv baholash – o‘quvchining o‘z ta’limiy yo‘lini anglash va baholash jarayonidagi faolligini oshiradi”[D.Islomova “Reflektiv ta’lim va baholash” 36-38-b.]

Quyida O‘zbekiston 5-sinf ona tili darsligi uchun taklif etilayotgan self-assessment jadvalini taklif etaman:

 *Men o‘z bilimimni baholayman (“So‘zlar tilsimi” bobi asosida)*

| Nº | Ko‘rsatkichlar | Ha | Qisman | Yo‘q |
|----|---|----|--------|------|
| 1 | Atoqli otlar va kishi nomlari haqida ma’lumotga ega bo‘ldim | | | |
| 2 | Infografika matnlari bilan ishlashni o‘rgandim | | | |
| 3 | Lug‘at va uning turlari haqida ma’lumotga ega bo‘ldim va o‘rgangan yangi so‘zlaridan muloqotda foydalana olaman | | | |
| 4 | “G‘aroyib so‘zlar” audiomatnini tinglab, matn asosida berilgan savollarga javob berdim | | | |

| | | | | |
|-----------|---|--|--|--|
| 5 | Istak gaplar mavzusini bilan tanishib chiqib, uni mashqlar yordamida mustahkamladim | | | |
| 6 | “Joy nomlarining kelib chiqishi” matni asosida tuzilgan o‘qib tushunish bilan bog‘liq mashqlarni bajara oldim | | | |
| 7 | Xatjild tuzilishini o‘rgandim | | | |
| 8 | Joy nomlari imlosi haqida ma’lumotga ega bo‘ldim | | | |
| 9 | Rasm asosida og‘zaki matn tuza oldim | | | |
| 10 | Bobda o‘rganilgan so‘zlar asosida tuzilgan krossvordni ishlay oldim | | | |

2-jadval

Izoh: katakchalardan biriga ✓belgisini qo‘ying.

Bu yondashuv o‘quvchini o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi, o‘qituvchiga esa o‘quvchilarining ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. **O‘quvchi o‘zini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida** shakllantirishga xizmat qiladi O‘quvchi o‘z kamchiliklarini anglaydi, bu esa ularni bartaraf qilishga sabab bo‘ladi.

Hind-o‘zbek baholash tizimi qiyosiy jadvali:

| Mezonlar | Haydorobod darsligi | O‘zbekiston darsligi |
|-----------------|--------------------------------|---------------------------------|
|-----------------|--------------------------------|---------------------------------|

| Baholash shakli | Formativ va summativ | Formativ va summativ |
|---------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|
| Formativ vositalar | Kuzatuv, daftar, loyiha, mini test | Savol-javob, amaliy mashg‘ulot, test |
| Og‘zaki baholash | Har kuni faoliyat asosida | Kamdan kam, odatda yozma ko‘rinishda |
| Loyihaviy ishlar | Har bir bo‘limda mavjud | Cheklangan miqdorda |
| Yondashuv | Kompetensiyaga asoslangan | Aralash (ko‘p hollarda an’anaviy) |

3-jadval

Shuningdek, Haydarobod darsligida baholash faqat natijani emas, balki o‘quvchining harakatlarini ham baholaydi. Bu esa ta’limdagi inklyuziv yondashuvni aks ettiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya qilaman:

1. O‘zbekiston darsliklariga self-assessment bo‘limlarini har bir bob oxirida joriy etish;
2. O‘qituvchilar uchun self-assessment(o‘z-o‘zini baholash)dan foydalanish bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanma ishlab chiqish;
3. Baholash mezonlarini o‘quvchilar bilan birlgilikda muhokama qilish (kriterial baholash madaniyati);
4. Shohrux Abdurayimov ta’riflaganidek, differensial baholash usulini joriy etish orqali o‘quvchi tipiga mos yondashuvni qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, Hindiston ta’lim tizimida o‘z-o‘zini baholash yondashuvi darslik darajasida ham amalga oshirilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu hali metodik tajriba shaklida qolmoqda. Taklif etilgan self-assessment modeli o‘quvchini subyekt sifatida

shakllantirish, tanqidiy fikrini rivojlantirish va shaxsiy yutuqlarini anglashga xizmat qiladi. Bu orqali ta’lim jarayonining sifatini sezilarli oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abduraimov, Sh.** (2020). *Baholash nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
2. **Islomova, D.** (2022). “Reflektiv ta’lim va baholash” // *Pedagogika jurnali*. – №2.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.** (2022). *5-sinf ona tili darsligi va metodik qo’llanmasi*. – Toshkent.
4. **SCERT Telangana.** (2019). *My English World – Class V.* – Hyderabad: Government Press.
5. **UNESCO.** (2021). *Assessment for Learning in South Asia*. – Paris: UNESCO Publishing.